O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2024 - yil 25 - may 167-10-212-Q/24 Toshkent tuman hokimligi

Toshken viloyati hokimining 2024 yil 30 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-apreldagi 233-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida” 333-10-0-Q/24-sonli qarori xaqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-apreldagi “Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish ishlarini autsorsing asosida xususiy sektor tomonidan amalga oshirishni tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 233-sonli qarori ijrosi yzasidan **Toshken viloyati hokimining 2024 yil 30 apreldagi 333-10-0-Q/24-sonli qarori** ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman**:

1. **Toshken viloyati hokimining 2024 yil 30 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-apreldagi 233-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida” 333-10-0-Q/24-sonli qarori** ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 10-oktabrdagi 330-sonli qarori bilan tajriba-sinov tariqasida viloyatlarda uzunligi 20 kmgacha bo‘lgan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish ishlariga autsorsing asosida xususiy sektorni jalb qilish belgilanganligi hamda loyihalar ro‘yxati tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-apreldagi 233-sonli qarori bilan quyidagilarni nazarda tutuvchi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish ishlarini autsorsing asosida xususiy sektor

tomonidan amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom ilovaga muvofiq:

autsorsingni aniqlash, shartnoma tuzish va hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi;

autsorsing xizmatlarini moliyalashtirish tartibi;

autsorsing va buyurtmachining huquqlari va majburiyatlari;

autsorsing xizmati ko‘rsatilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish tartibi tasdiqlangaligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman avtomobil yo‘llari bo‘limi tuman hokimligi Matbuot xizmati bilan birgalikda, 2024-yil 1-maydan boshlab tajriba-sinov tariqasida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish ishlariga autsorsing asosida xususiy sektorni jalb qilish loyihalarini ommaviy axborot vositalariga, shuningdek, rasmiy veb-saytlarga joylashtirilishini ta’minlasin

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 25-maydagi
167-10-212-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-apreldagi 233-sonli qarori ilovasi bilan tasdiqlangan Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish ishlarini autsorsing asosida xususiy sektor tomonidan amalga oshirish tartibi to‘g‘risida VAQTINCHALIK NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Vaqtinchalik nizom umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish ishlarini autsorsing asosida xususiy sektor tomonidan amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Ushbu Vaqtinchalik nizom 2026-yil 1-yanvarga qadar amal qiladi.

2. Ushbu Vaqtinchalik nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

autsorsing— shartnoma asosida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qiluvchi tadbirkorlik subyekti;

autsorsing — umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish ishlarini shartnoma asosida autsorserga o‘tkazish;

buyurtmachi — Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar avtomobil yo‘llari bosh boshqarmalari;

ekspluatatsiya qilish — umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ta’mirlash, saqlash va qishki qarov ishlarini bajarish;

talabgor — autsorsing asosida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ta’mirlash, saqlash va qishki qarov ishlarini bajarish uchun tanlashda (tenderda) ishtirok etadigan tadbirkorlik subyekti.

3. Buyurtmachi ekspluatatsiya qilish ishlarini autsorsingga o‘tkazishda quyidagi talablarga rioya qilishi shart:

autsorsingni qonunchilik hujjatlari asosida tanlab olish;

ekspluatatsiya qilish ishlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishni ko‘zda tutish.

2-bob. Autsorsingni aniqlash, shartnoma tuzish va hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi

4. Autsorsing davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga

muvofiq eng yaxshi takliflarning davlat xaridlari elektron tizimi orqali amalga oshiriladigan tanlash (keyingi o‘rinlarda — tanlash) yoki tender savdolari asosida aniqlanadi.

5. Tanlash (tender) to‘g‘risidagi axborot buyurtmachi tomonidan davlat xaridlarining elektron tizimiga tanlash (tender) o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lonni va tanlash (tender) bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini joylashtirish yo‘li bilan ma’lum qilinadi.

Tanlash (tender) o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon va tanlash (tender) bo‘yicha xarid qilish hujjatlari buyurtmachi tomonidan takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan tegishincha kamida besh ish kuni (tanlashda) va o‘n ikki ish kuni oldin (tenderda) davlat xaridlarining elektron tizimiga hamda Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining rasmiy veb-saytiga, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida joylashtiriladi.

6. E’londa tanlash (tender) shartlari va taqdim etilishi lozim bo‘lgan hujjatlar ro‘yxati, ekspluatatsiya qilish ishlari, shartnoma asosida autsorsingga beriladigan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘lining bir yillik ekspluatatsiya xarajatlari haqidagi ma’lumotlar aniq ko‘rsatiladi.

7. Talabgor tomonidan taqdim etiladigan tanlash (tender) hujjatlarning to‘g‘riligi uchun talabgor javobgar hisoblanadi.

8. Tanlash (tender) natijalari bo‘yicha shikoyatlar qonunchilik hujjatlariga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

9. Autsorsing shartnomasi belgilangan avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish ishlarining barcha bosqichlari uchun bir moliya yiliga tuziladi.

10. Avtomobil yo‘llarini autsorsing asosida ekspluatatsiya qilish bo‘yicha shartnomani tuzishda quyidagilar nazarda tutilishi lozim:

shartnomaning ajralmas qismi bo‘lgan xizmatlar ko‘rsatish va moliyalashtirish jadvallari;

belgilangan tartibda oldindan to‘lov mablag‘larini ajratish;

moliyalashtirish jadvaliga muvofiq xizmatlar ko‘rsatishni har oyda moliyalashtirib borish;

hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasidan kechiktirmagan holda, xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha bajarilgan ishlar uchun tegishli hisob-fakturani buyurtmachiga taqdim etish;

bajarilayotgan ishlar sifati uchun autsorsingning javobgarligini oshirish.

11. Talabgorlar quyidagi holatlarda tanlash yoki tender savdolarida ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi:

yo‘l qurilish-ta’mirlash yo‘nalishida uch yildan kam tajribaga ega bo‘lgan tashkilotlar;

ta’sis hujjatlari, moliyaviy qatnashish, xolding shaklida va boshqa shakllarda ifodalangan bir-biri bilan bevosita tashkiliy-huquqiy bog‘liq bo‘lgan tashkilotlar;

buyurtmachi rahbar xodimlarining yaqin qarindoshlari ta’sisligida tashkil etilgan tashkilotlar;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining rahbari yoki ta’sischisi buyurtmachi va uning rahbarlariga nisbatan bevosita bog‘liq bo‘lsa yohud ulardan birortasi ushbu tashkilotning ta’sischisi yoki rahbari hisoblansa;

talabgor davlat xaridlari to‘g‘risidagi maxsus axborot portalining insofsiz ishtirokchilari yagona reyestriga kiritilgan bo‘lsa;

shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslari hamda boshqa resurslarning mavjud emasligi;

soliqlar, yig‘imlar hamda kreditlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikning mavjudligi;

o‘ziga nisbatan joriy etilgan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining mavjudligi;

talabgorning oldingi yo‘l-kurilish obyektlari bo‘yicha bajarilmay qolgan majburiyatlari bo‘lgan taqdirda.

12. Buyurtmachi zarur bo‘lganda autsorsing xizmatlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ishtirokchilarga qo‘shimcha talablar belgilashga haqli. Ishtirokchilarni qo‘shimcha talablar asosida o‘rganish dastlabki malaka tanlovi orqali amalga oshiriladi.

Bunda ishtirokchilarga qo‘yiladigan qo‘shimcha talablar davlat xaridlarining asosiy prinsiplarga zid bo‘lmasligi kerak, shuningdek, davlat xaridi to‘g‘risidagi axborotda ishtirokchilarga qo‘yiladigan qo‘shimcha talablar ushbu axborot e’lon qilingan paytda ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

3-bob. Autsorsing xizmatlarini moliyalashtirish tartibi

13. Autsorsing xizmatlarini moliyalashtirish miqdori Transport vazirligi xuzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan yillik xarajatlar smetasi asosida belgilanadi.

Bunda autsorsing asosida ekspluatatsiya qilish xarajatlari uchun mablag‘lar belgilangan idoraviy me’yorlarga muvofiq ajratiladi.

14. Ko‘rsatilgan xizmatlar hisob-kitobi shartnoma oylik miqdorining 15

foizi oldindan o‘tkazib berilgach, qolgan 85 foizi haqiqatda ko‘rsatilgan xizmatlar miqdoridan kelib chiqib, hisobot oyidan keyingi oyning yakuniga qadar, yilning dekabr oyi uchun moliya yili oxirgi kunidan kechikmagan holatda amalga oshiriladi.

Buyurtmachi va autsorsing o‘rtasida o‘zaro hisob-kitoblar mazkur Vaqtinchalik nizomga ilovaga muvofiq reja asosida amalga oshiriladi.

4-bob. Autsorserning huquqlari va majburiyatlari

15. Autsorser quyidagi huquqlarga ega:

ko‘rsatilgan xizmatlar uchun o‘z vaqtida to‘lovlar to‘lanishini talab qilish;

ko‘rsatilgan xizmatlar natijasida foyda olish;

buyurtmachidan shartnoma shartlarining bajarilishini talab qilish;

avtomobil yo‘lini ekspluatatsiya qilish maqsadida tegishli bo‘lgan barcha hujjatlarni olish.

Autsorsing qonunchilik hujjatlariga hamda shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

16. Autsorserning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

ekspluatatsiya qilish ishlari yakuni bo‘yicha qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli shakldagi hujjatlar asosida bajarilgan ishlarni buyurtmachiga topshirish;

autsorsing xizmatini ko‘rsatishda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash hamda texnika, yong‘in, mehnat muhofazasi, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena talablariga qat’iy rioya etish;

ishlar va xizmatlar sifatli bajarilishini ta’minlash;

autsorsing tomonidan ekspluatatsiya ishlari amalga oshirilayotgan avtomobil yo‘lida o‘ziga yuklangan majburiyatlarni bajarmaganligi oqibatida yo‘l harakati ishtirokchilariga va transport vositalariga yetkazilgan zararning o‘rnini qonunchilikda belgilangan tartibda qoplash;

shartnomani bekor qilish haqida buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirish, ushbu muddat tugaguniga qadar esa buyurtmachining tegishli xizmatlarini uzluksiz tashkil etishni ta’minlash.

Autsorsing zimmasiga qonunchilik hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

5-bob. Buyurtmachining huquqlari va majburiyatlari

17. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

autsorsingdan ishlarni sifatli va belgilangan muddatlarda bajarilishini talab qilish;

autsorsingdan avtomobil yo‘lida amalga oshirilgan ekspluatatsiya qilish ishlari bo‘yicha tegishli ma’lumotlarni talab qilib olish;

doimiy ravishda belgilangan avtomobil yo‘lini ekspluatatsiya qilish ishlarini joyiga chiqib, autsorsing faoliyatiga bevosita aralashmagan holda o‘rganish hamda uning o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishini nazorat qilish;

aniqlangan mavjud muammolar yuzasidan ularni bartaraf etish bo‘yicha autsorsingga ko‘rsatma va takliflar berish.

Buyurtmachi qonunchilik hujjatlariga hamda shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

18. Buyurtmachining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

autsorsingga avtomobil yo‘lini ekspluatatsiya qilish maqsadida tegishli bo‘lgan barcha hujjatlarni taqdim etish;

ekspluatatsiya qilish ishlari yakuni bo‘yicha autsorser tomonidan bajarilgan ishlarni amaldagi qonunchilik doirasida qabul qilish;

shartnomaga muvofiq belgilangan muddat va shartlar asosida autsorsingga ko‘rsatilgan xizmatlar uchun o‘z vaqtida to‘lovlarni to‘lash;

yuzaga kelgan muammoli masalalarni hap etishda yordam ko‘rsatish bo‘yicha autsorsing bilan doimiy aloqa yo‘lga qo‘yilishini ta’minlash.

Buyurtmachi zimmasiga qonunchilik hujjatlari va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

6-bob. Autsorsing xizmati ko‘rsatilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish

19. Autsorsing xizmatlari monitoringi autsorsing tomonidan ekspluatatsiya qilinadigan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarida ta’mirlash, saqlash va qishki qarov ishlarini bajarish jarayonida buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

Monitoring natijalari bo‘yicha hisobotlar buyurtmachi tomonidan kelgusi oyning 5-sanasiga qadar Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasiga topshiriladi.

20. Monitoring quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

ushbu Nizomga muvofiq ekspluatatsiya qilish ishlari to‘g‘risida muntazam ravishda hisobot va ma’lumotlarni yig‘ish;

zarur hollarda, amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish uchun autsorsingdan qo‘shimcha ma’lumotlarni so‘rash.

21. Monitoring autsorsing tomonidan belgilangan avtomobil yo‘lini ekspluatatsiya qilish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish sifati va ajratilgan

moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshiriladi.

22. Quyidagilar monitoringning asosiy vazifalari hisoblanadi:

ishlarning bajarilishini doimiy kuzatish;

autsorsing tomonidan ekspluatatsiya qilish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha o‘z majburiyatlariga rioya etilishini ta’minlash;

ishlarni amalga oshirish imkoniyatiga ta’sir etuvchi xavflarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish choralarini ko‘rish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

ishlarning amalga oshirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shakllantirish va birlashtirish;

autsorsing faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

23. Mazkur Vaqtinchalik nizom bilan tartibga solinmagan munosabatlar amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

24. Avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning sifatiga autsorsing javobgar hisoblanadi.

25. Mazkur Vaqtinchalik nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 25-maydagi
167-10-212-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish ishlarini autsorsing asosida xususiy sektor tomonidan amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom

ILOVASI

Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tizimidagi hududiy bosh boshqarmalar va autsorsing o‘rtasida o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish

Rejasi

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
I bosqich	Buyurtmachi	Tegishli oy uchun shartnoma qiymatining 15 foizi miqdoridagi mablag‘ni autsorserning hisobvarag‘iga o‘tkazib beradi.	Har oyning dastlabki 10 bank kuni davomida
II bosqich	Autsorsing	1. Amalga oshirilgan ishlar uchun tegishli hujjatlarni rasmiylashtiradi. 2. Buyurtmachi bilan o‘zaro hisob kitob qilish uchun amalda ko‘rsatilgan xizmatlar hisob fakturasini (bajarilgan ishlar dalolatnomalarini) taqdim etadi.	Har oyning 5-sanasiga qadar (o‘tgan oy uchun)
III bosqich	Buyurtmachi	1. Asoslovchi hujjatlarni (hisob fakturalar, bajarilgan ishlar dalolatnomalari) taqqoslaydi.	3 ish kuni davomida
2. Tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq qolgan 85 foiz summani xizmatlar ko‘rsatish oyi tugagandan so‘ng to‘laydi.			